

**NAVOIY G‘AZALLARI TAHLILIDA AN‘ANAVIY SHARH AN‘ANASI VA
ZAMONAVIY ADABIY TAHLIL MUNOSABATI****Rahmonova Maftuna O‘ktamovna****Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 26-maktab****ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi****+998886847444****rahmonovam448@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.21918589>****ANNOTATSIYA**

Maskur tezisda Alisher Navoiy g‘azallarini o‘rganishning ikki yo‘li - Sharq mumtoz adabiyotshunosligida shakllangan “sharh” an‘anasi hamda XX–XXI asr adabiyotshunosligida qaror topgan zamonaviy tahlil usullari qiyosiy tarzda tadqiq etiladi. Ushbu ilmiy izlanishimizda an‘anaviy sharhning tarixiy ildizlari, ichki bosqichlari va usullari, shuningdek, Navoiy asarlariga bag‘ishlangan lug‘at va sharh manbalari ko‘rib chiqiladi. Navoiyning o‘z asarlariga yozgan debochalari va nazariy risolalari “muallif sharhi” sifatida baholanadi. Zamonaviy tahlilning matniy-poetik, struktural, germenevtik, retseptiv va lingvopoetik yo‘nalishlari sharhlanadi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, g‘azal, sharh, talqin, matn tahlili, poetika, tasavvuf, germenevtika, retseptiv estetika, navoiyshunoslik, lingvopoetika.

АННОТАЦИЯ

В статье в сравнительном плане исследуются два пути изучения газелей Алишера Навои - традиция классического комментария (“шарх”), сложившаяся в восточном классическом литературоведении, и современные методы анализа, утвердившиеся в литературоведении XX–XXI веков. Рассматриваются исторические корни классического комментария, его внутренние этапы и приёмы, а также словарные и комментаторские источники, посвящённые произведениям Навои. Предисловия (дебоча) и теоретические трактаты самого поэта оцениваются как “авторский комментарий”. Освещаются текстово-поэтическое, структурное, герменевтическое, рецептивное и лингвопоэтическое направления современного анализа.

Ключевые слова: Алишер Навои, газель, комментарий, интерпретация, анализ текста, поэтика, суфизм, герменевтика, рецептивная эстетика, навоиведение, лингвопоэтика.

ABSTRACT

The article offers a comparative study of two approaches to the interpretation of Alisher Navoi’s ghazals: the classical commentary tradition (sharh) formed within Eastern classical philology, and the modern analytical methods established in twentieth- and twenty-first-century literary scholarship. It examines the historical roots, internal stages and techniques of classical commentary, together with the dictionaries and commentaries devoted to Navoi’s writings. The poet’s own prefaces and theoretical treatises are assessed as a form of authorial commentary. The textual-poetic, structural, hermeneutic, receptive and linguo-poetic directions of modern analysis are also discussed.

Keywords: Alisher Navoi, ghazal, commentary, interpretation, textual analysis, poetics, Sufism, hermeneutics, reception aesthetics, Navoi studies, linguo-poetics

KIRISH

Alisher Navoiy merosi o'zbek xalqining ma'naviy hayotida oltin ustun vazifasini bajaradi. Besh asrdan ortiq vaqt davomida uning g'azallari qo'lda ko'chirilgan, yod olingan, kuyga solingan, madrasalarda dars sifatida o'qitilgan va bugungi kunda ham maktab darsliklaridan tortib ilmiy monografiyalargacha bo'lgan kengliklarda o'rganilmoqda. Biroq bu davomiylik hech qachon oson kechmagan. Har bir yangi avlod Navoiy g'azallarini o'z tili, o'z bilim darajasi va o'z dunyoqarashi bilan qayta o'qishi shart bo'lgan.

Navoiy asarlarini sharhlashning tarixan shakllangan ikki yo'li mavjud. Birinchisi - Sharq mumtoz ilmiy an'anasida asrlar davomida sayqal topgan sharh (izoh, tafsir, talqin) maktabi. Ikkinchisi - XX asrda Yevropa adabiyotshunosligi ta'sirida shakllangan va bugungi kunda ham rivojlanib borayotgan zamonaviy adabiy tahlil metodikasi. Amaliyotda bu ikki yo'l ko'pincha bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi: ba'zilar “eski sharhlar zamonaviy o'quvchiga tushunarsiz” desa, boshqalar “zamonaviy tahlil matnni his qilmaydi, faqat atamalar bilan o'ynaydi” degan e'tirozni bildiradi. Aslida bu qarama-qarshilik sun'iy bo'lib, uning ildizi ikki an'ana o'rtasidagi tarixiy uzilishga borib taqaladi.

Mazkur maqolaning maqsadi - Navoiy g'azallari tahlilida an'anaviy sharh an'ansi bilan zamonaviy adabiy tahlil o'rtasidagi munosabatni ochib berish, ularning umumiy nuqtalari va tafovutlarini aniqlash hamda ikkalasini birlashtiradigan amaliy tahlil modelini taklif qilishdan iborat.

ASOSIY QISM

“Sharh” so'zi arabchadan olingan bo'lib, “yoyish”, “ochish”, “kengaytirish” ma'nolarini bildiradi. Sharh - bu yopiq, siqiq, ko'p qatlamli matnni ochib, uni o'quvchi uchun kengaytirib berish jarayoni. Sharh an'ansi dastlab diniy matnlar bilan bog'liq holda shakllangan: Qur'on tafsiri, hadis sharhi, fiqhiy va falsafiy asarlarga yozilgan izohlar. Vaqt o'tishi bilan bu usul badiiy adabiyotga ham ko'chdi. Chunki mumtoz she'riyat ham xuddi muqaddas matn kabi ko'p ma'noli, ramziy va yuqori darajada shartli edi. Hofiz Sheroziy devoniga, Sa'diyning “Bo'ston” va “Guliston”iga, Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy”siga o'nlab sharhlar bitilgani buning yorqin dalilidir.

Mumtoz sharh amaliyotini kuzatsak, unda ma'lum bir izchillik borligini ko'ramiz. Odatda sharh qiluvchi quyidagi bosqichlar bo'yicha harakat qilgan.

Birinchi bosqich - lug'aviy izoh. Baytdagi notanish yoki ko'p ma'noli so'zlar aniqlanadi, ularning lug'aviy ma'nosi beriladi. Masalan, “sarv” - daraxt nomi, ammo she'rda ma'shuqaning tik qomatiga ishora; “gulro” - yuzi gulday.

Ikkinchi bosqich - sarf va nahv, ya'ni grammatik tahlil. Gapning tuzilishi, ega va kesim munosabati, izofa birikmalari aniqlanadi. Mumtoz she'rda so'z tartibi ko'pincha odatdagidan farq qiladi, shuning uchun baytni “to'g'rilab o'qish” zarur bo'ladi.

Uchinchi bosqich - aruz va qofiya tahlili. She'r qaysi vaznda ekani, radif va qofiya qanday tuzilgani belgilanadi. Bu shunchaki texnik ish emas: vazn she'rning ohangini, ohang esa kayfiyatini belgilaydi.

To'rtinchi bosqich - badiiy san'atlar (sanoye') tahlili. Baytda tashbeh (o'xshatish), istiora (ko'chim), tazod (zidlash), talmeh (mashhur voqeaga ishora), husni ta'lil (chiroyli sabab keltirish), iyhom (ikki ma'nolilik) kabi san'atlardan qaysi biri qo'llangani aniqlanadi. Bu bosqichning nazariy asosini Atoullloh Husayniyning “Badoye' us-sanoye'”, Ahmad Toroziyning “Funun ul-balog'a” kabi risolalari tashkil etadi [6; 7].

Beshinchi bosqich - ma'naviy va irfoniy talqin (ta'vil). Bu bosqichda sharhchi zohiriy (tashqi) ma'nodan botiniy (ichki) ma'noga o'tadi. Ishq - Haqqa muhabbat, may - ilohiy ishq mastligi, soqiy - murshid, hijron - Haqdan ayrilik sifatida sharhlanadi. Aynan shu bosqich an'anaviy sharhning eng jozibali, ayni paytda eng bahsli qismidir.

Oltinchi bosqich - axloqiy-tarbiyaviy xulosa. Sharhchi baytdan o'quvchi uchun ibrat chiqaradi. Bu bosqich mumtoz sharhning maqsadi bilan bog'liq: u faqat tushuntirish emas, balki tarbiyalash vazifasini ham bajargan.

Navoiy tirikligidayoq uning asarlari Xurosondan tashqariga - Movarounnahr, Ozarbayjon, Usmonli davlati, Hindiston va Sharqiy Turkistonga yoyildi. Turkiy tilning turli lahjalarida so'zlashuvchi kitobxonlar uchun shoir tilidagi ayrim so'zlar tushunarsiz edi. Aynan shu ehtiyoj Navoiy asarlariga bag'ishlangan lug'at-sharhlar yaratilishiga sabab bo'ldi.

Ular orasida eng mashhurlari quyidagilar: “Abushqa” - XVI asrda Usmonli muhitida tuzilgan, Navoiy asarlaridagi so'zlarni izohlab, ularga she'riy misollar keltirgan lug'at; Tole' Imoniy Hiraviyning “Badoye' ul-lug'at” asari - fors tilida so'zlashuvchi kitobxonlar uchun mo'ljallangan lug'at, u XX asrda A. K. Borovkov tomonidan ilmiy nashr etilgan [20]; Mirzo Mahdixon Astrobodyning “Sangloh” asari - XVIII asrda yaratilgan, lug'at bilan bir qatorda turkiy til grammatikasi tavsifini ham o'z ichiga olgan yirik manba.

An'anaviy sharhning eng katta ustunligi - matnga tarixiy va lisoniy yaqinlik. Sharhchi Navoiy bilan bir madaniy makonda yashagan, u ishlatgan ramzlar tizimini ichdan bilgan, aruz va badiiy san'atlar ilmini mukammal egallagan shaxs bo'lishi lozim. U uchun “may” yoki “xirqa” so'zlari izohlashni talab qiladigan sirli atamalar emas, balki kundalik madaniy tajribaning bir qismi edi.

Navoiy g'azallarini tushunishda ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan, ammo eng ishonchli manba - shoirning o'zi qoldirgan izohlardir. Navoiy nafaqat buyuk shoir, balki o'z ijodini nazariy jihatdan anglagan va tushuntirgan mutafakkir ham edi. Uning bu boradagi merosi bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi.

Navoiy o'z devonlariga yozgan debochalari (so'zboshilari) shunchaki an'anaviy hamd va na't emas. Ularda shoir devonni nima uchun va qanday tartib berganini, g'azallarni qanday tamoyil asosida joylashtirganini bayon qiladi. Xususan, “Xazoyin ul-maoniy” devonlar to'plamini u inson umrining to'rt fasliga muvofiq tartibladi: “G'aroyib us-sig'ar” (bolalik g'aroyibotlari), “Navodir ush-shabob” (yigitlik nodirliklari), “Badoye' ul-vasat” (o'rta yosh badiiyati) va “Favoyid ul-kibar” (keksalik foydalari) [1; 2].

Bu tartib zamonaviy tahlil uchun juda muhim ma'lumot beradi. Agar g'azal “G'aroyib us-sig'ar”dan olingan bo'lsa, undagi hissiyot to'liqliligi, kutish va iztirob motivlari tasodifiy emas - ular devonning umumiy konsepsiyasiga mos keladi. Aksincha, “Favoyid ul-kibar”dagi g'azallarda hikmat, xulosa va tafakkur ohangi kuchayadi. Demak, Navoiy o'z g'azallarini alohida-alohida emas, balki yaxlit tizim sifatida ko'rgan va bu tizimning kalitini o'quvchiga o'zi bergan.

XX asr boshida Navoiy merosini yangi ilmiy asosda o'rganish Abdurauf Fitrat nomi bilan bog'liq. Fitrat mumtoz adabiyotni o'rganishda matnga tayanish, adabiy qoidalarni tizimlashtirish va qiyosiy yondashuvni ilgari surdi [8]. Uning “Adabiyot qoidalari” asari o'zbek adabiyotshunosligida nazariy tafakkurning shakllanishida muhim qadam bo'ldi.

1930–50-yillarda navoiyshunoslik og'ir sinovlarni boshdan kechirdi. Bir tomondan, Ye. E. Bertels kabi olimlarning fundamental tadqiqotlari yaratildi [9]. Ikkinchi tomondan, mafkuraviy bosim natijasida Navoiy ijodidagi tasavvufiy qatlam ataylab inkor etildi yoki “feodal-diniy

sarqit" sifatida baholandi. Bu yondashuv g'azallarni faqat dunyoviy ishq qo'shig'i sifatida talqin qilishga majbur qildi va matnning katta qismini tushunarsiz qoldirdi.

1950–70-yillarda Oybek, Izzat Sulton, Vohid Zohidov, Abdulqodir Hayitmetov, Natan Mallayev, Aziz Qayumov, Suyima G'aniyeva kabi olimlarning sa'y-harakati bilan navoiyshunoslik mustaqil ilmiy soha sifatida shakllandi. Hayitmetovning "Navoiy lirikasi" asari shoir g'azallarini mavzu, obraz va janr jihatidan tizimli tahlil qilishning birinchi yirik tajribasi bo'ldi [10].

1980-yillardan boshlab, ayniqsa mustaqillik yillarida, tahlil markazi poetika va irfoniyat tomon siljidi. Yoqubjon Is'hoqovning "Navoiy poetikasi" asari shoir mahoratini badiiy san'atlar tizimi orqali ochib berdi [11; 12]. Najmiddin Komilov tasavvuf istilohlari va g'oyalarini ilmiy asosda tushuntirib, g'azallarning irfoniy qatlamini o'qishga yo'l ochdi [13; 14]. Ibrohim Haqqul esa Navoiy she'riyatini falsafiy va ma'naviy hodisa sifatida talqin qildi [15; 16]. Alibek Rustamovning badiiy mahorat masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlari ham shu yo'nalishda muhim o'rin tutadi [21].

Bugungi navoiyshunoslikda quyidagi yo'nalishlar faol qo'llanilmoqda.

1. Matnshunoslik va matn tanqidi. Bu yo'nalish g'azalning ishonchli matnini tiklash bilan shug'ullanadi. Qo'lyozma nusxalar qiyoslanadi, ko'chiruvchi xatolari aniqlanadi, muqobil variantlar belgilanadi. Tahlil qanchalik nozik bo'lmasin, agar u noto'g'ri matnga asoslansa, natija ham xato bo'ladi. Shu bois "Mukammal asarlar to'plami"ning 20 jildlik ilmiy nashri navoiyshunoslikning poydevori hisoblanadi [1].

2. Matn ichida tahlil (yaqindan o'qish). Bu usulda tadqiqotchi matndan tashqaridagi ma'lumotlarga emas, balki matnning o'ziga - so'z tanlashi, tovush takroriga, sintaktik tuzilishiga e'tibor qaratadi. An'anaviy sharhning lug'aviy bosqichi bilan bu usul juda yaqin, farqi shundaki, zamonaviy tahlil butun g'azalni yagona tuzilma sifatida ko'radi.

3. Struktural va semiotik tahlil. Bunda g'azal belgi (ishora) tizimi sifatida o'rganiladi. Masalan, "kecha - kunduz", "vasl - hijron", "uy - yo'l" kabi zid juftliklar matnning ichki karkasini tashkil etishi aniqlanadi. Bu usul mumtoz she'riyat uchun ayniqsa samarali, chunki g'azal poetikasining o'zi barqaror ramzlar tizimiga asoslanadi.

4. Germenevtik yondashuv. Germenevtika - tushunish va talqin qilish nazariyasi. Uning asosiy g'oyasi shundaki, o'quvchi matnni har doim o'z tarixiy tajribasi orqali tushunadi. Demak, XV asr kitobxon va XXI asr talabasi bir xil g'azalni bir xil tushunmaydi - va bu tabiiy hol. Germenevtika bu farqni kamchilik emas, balki tushunishning sharti deb qaraydi.

5. Retseptiv estetika. Bu yo'nalish nemis olimlari H. R. Yauss va V. Izer nomlari bilan bog'liq [23]. Uning markaziy tushunchasi - "kutish ufqi": o'quvchi asarga o'zining oldingi o'qish tajribasi bilan yondashadi. Navoiy g'azallariga tatbiq etilganda bu juda foydali: shoir zamondoshlari uchun an'anaviy bo'lgan ko'plab tasvirlar bugungi o'quvchi uchun kutilmagan va g'alati ko'rinadi. Muvaffaqiyatli tahlil aynan shu ufqlar farqini bartaraf etishga xizmat qilishi kerak.

6. Intertekstuallik nazariyasi. Har bir matn boshqa matnlar bilan suhbatda bo'ladi degan g'oyaga asoslanadi [24]. Sharq adabiyotida bu g'oya nazira, tatabbu' va javobiya an'anasi sifatida allaqachon mavjud edi. Navoiy Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz, Jomiy g'azallariga ochiq javob yozgan. Demak, g'azalni yolg'iz o'qish emas, balki adabiy suhbat ichida o'qish kerak.

7. Lingvopoetika va raqamli tahlil. So'nggi yillarda kompyuter dasturlari yordamida Navoiy asarlarining lug'at boyligi, so'z chastotasi, qofiya tizimi statistik o'rganilmoqda. Bu usul katta hajmdagi matnda inson ko'zi ilg'amaydigan qonuniyatlarni aniqlash imkonini beradi.

Zamonaviy tahlilning ustunligi - tizimlilik va yaxlitlik. U g'azalni parcha-parcha emas, butun holda ko'radi; uni shoirning boshqa asarlari, adabiy jarayon va jahon adabiyoti bilan qiyoslaydi; o'quvchi omilini hisobga oladi; tahlil natijalarini tekshirish mumkin bo'lgan mezonlarga tayanadi.

Nazariy mulohazalarni amalda sinab ko'rish uchun Navoiyning eng mashhur g'azallaridan birini tanladik. U "Xazoyin ul-maoniy"ga kiritilgan bo'lib, quyidagi matla' bilan boshlanadi:

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi,

Ko'zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

G'azalning yakunlovchi bayti esa shunday:

Ey Navoiy, boda birla xurram et ko'ngil uyin,

Ne uchunkim boda kelgan uyga qayg'u kelmadi.

Mazkur g'azalni an'anaviy uslubda quyidagicha sharhlash mumkin.

1. Lug'aviy bosqich. "Kecha" - bu yerda ikki ma'noda kelgan: "tun" va "kechagi kun", ya'ni o'tgan kecha. "Kelgumdur debon" - kelaman deb (va'da berib). "Sarv" - tik o'sadigan daraxt; she'riyatda ma'shuqaning qomatiga tashbeh. "Gulro'" - yuzi gulday go'zal. Demak, "sarvi gulro'" - qomati sarvday, yuzi gulday sevgili. Maqta'dagi "boda" - may, sharob; tasavvufiy talqinda ilohiy ishq mastligi. "Xurram etmoq" - shod qilmoq. "Ko'ngil uyi" - qalb, dil.

2. Grammatik bosqich. Matla'ning birinchi misrasini oddiy so'z tartibiga keltirsak: "Ul sarvi gulro' kecha kelgumdur debon (va'da bergan edi, ammo) kelmadi". She'rda va'da va uning bajarilmagani bitta misra ichida yonma-yon qo'yilgan - bu esa kutish va umidsizlik o'rtasidagi keskinlikni kuchaytiradi.

3. Vazn va qofiya bosqichi. G'azal ramali musammani mahzuf vaznida bitilgan (foilotun foilotun foilotun). Bu vazn o'zbek mumtoz she'riyatida eng ko'p qo'llangan vaznlardan biri bo'lib, ravon va ohangdor yurishi bilan ajralib turadi. Radif - "kelmadi" so'zi, u barcha baytlarning oxirida takrorlanadi. Qofiya vazifasini "gulro'", "uyqu", "qorong'u", "kulgu", "qayg'u" kabi so'zlar bajaradi.

4. Badiiy san'atlar bosqichi. Matla'da tashbeh san'ati (ma'shuqa sarv va gulga o'xshatilgan) yetakchilik qiladi. G'azal davomida tazod (zidlash) san'ati ham faol qo'llanadi: yorug'lik va zulmat, kutish va yo'qlik, kulgi va yig'i qarama-qarshi qo'yiladi. Radifning har baytda takrorlanishi esa takrir san'atining kuchli namunasidir.

5. Irfoniy talqin bosqichi. An'anaviy sharhchi bu g'azalni faqat dunyoviy sevgi qo'shig'i deb qaramaydi. Uning nazarida "sarvi gulro'" - mutlaq go'zallik, ya'ni Haq jamoli; "kecha" - hijron, ayriliq holati; "uyqusizlik" - solikning tinimsiz zikr va intilishi. G'azalning o'rtasida keladigan "tolibi sodiq" - sodiq izlovchi haqidagi bayt bu talqinning kalitini beradi: agar solik chin dildan intilsa, maqsad o'z-o'zidan ravshan bo'ladi. Maqta'dagi "boda" esa mayxona mayi emas, ilohiy ishq mastligidir, u qalbdan g'am-quyg'uni haydaydi.

Zamonaviy yo'nalishda esa quyidagicha sharhlash maqsadga muvofiq.

1. Kompozitsiya. G'azal tasodifiy baytlar yig'indisi emas, aniq ichki harakatga ega. Boshlanishda shaxsiy kutish holati tasvirlanadi. So'ngra iztirob kuchayadi va jismoniy belgilar (uyqusizlik, ko'z yoshi) orqali ifodalanadi. O'rta qismda lirik qahramon o'z holatiga tashqaridan - jamiyat ko'zi bilan qaraydi. Keyingi bosqichda shaxsiy tajriba umumiy hikmat darajasiga

ko'tariladi. Yakunda esa yechim taklif etiladi. Demak, g'azalda "his - izzat - anglash - hikmat - yechim" ko'rinishidagi izchil harakat mavjud.

2. Radifning vazifasi. Zamonaviy tahlil nuqtai nazaridan "kelmadi" radifi shunchaki texnik takror emas. U butun matnning ma'naviy markazi. Har bayt boshqa-boshqa manzarani chizadi, ammo barchasi bitta xulosaga - yo'qlikka kelib taqaladi. Radif matnning yurak urishiga o'xshaydi: u kutishning bir maromdagi, ammo behuda takrorlanishini eshittiradi. Bu - inkorning poetikasi: matn boricha emas, yo'g'i bilan qurilgan.

3. Zamon va makon tuzilishi. G'azaldagi butun voqea bir kecha ichida - quyosh botganidan tong otguncha kechadi. Bu juda tor zamon doirasi, ammo matnda u cheksiz uzunday tuyuladi. "Tong otquncha" iborasi va lahza-lahza takrorlanuvchi harakatlar zamonni sun'iy ravishda cho'zadi. Makon esa uch nuqtadan iborat: lirik qahramonning uyi (kutish makoni), yo'l (umid makoni) va yorning ko'yi (erishib bo'lmas makon). Bu uch nuqta o'rtasidagi masofa g'azalning fojiaiy kuchini belgilaydi.

4. Lirik qahramon obrazi. Matnda "men" faol emas, kutuvchi mavqeda. U harakat qiladi - chiqadi, qaraydi, yig'laydi, ammo bu harakatlarning birortasi natija bermaydi. Shu bois g'azaldagi dramatism tashqi voqeadan emas, ichki holatning o'zgarishidan tug'iladi.

5. Ijtimoiy o'lchov. G'azalning bir baytida lirik qahramon o'z ahvolini ko'rib kulgan odamlar haqida gapiradi. Bu - mumtoz she'riyatda kam uchraydigan nozik nuqta: oshiqning fojiasi atrofdagilar uchun tomosha. Zamonaviy tahlil bu yerda shaxs va jamiyat o'rtasidagi tushunmovchilik motivini ko'radi, an'anaviy sharh esa buni "malomat" tushunchasi bilan izohlaydi. Ikki talqin bir-birini inkor qilmaydi, aksincha to'ldiradi.

6. Retseptiv jihat. Navoiy zamondoshlari uchun "sarvi gulro" tasviri tayyor va tanish edi - u hech qanday izoh talab qilmasdi. Bugungi o'quvchi esa bu birikmani birinchi marta ko'rib, uni g'ayrioddiy metafora deb qabul qiladi. Ya'ni asrlar davomida o'zgarmagan matn turli ufqlarda turlicha ishlaydi. Tahlilchining vazifasi - bu ufqlarni bir-biriga yaqinlashtirish.

7. Intertekstual jihat. "Kelmad" radifi va va'daga vafo qilmagan yor motivi Sharq she'riyatida keng tarqalgan. Navoiy an'anaviy mavzuni tanlaydi, ammo uni o'ziga xos tarzda ishlaydi: g'azal shaxsiy shikoyatdan boshlanib, falsafiy umumlashma bilan yakunlanadi. An'anaviy qolipdan yangi ma'no chiqarish - mumtoz shoir mahoratining asosiy mezon.

Yuqoridagi ikki xil usuldagi sharhni yonma-yon qo'ysak, ular bir-birini inkor qilmasligi ravshan bo'ladi. An'anaviy sharh bizga matnning tilini, ramzlar tizimini va ma'naviy chuqurligini beradi. Zamonaviy tahlil esa uning tuzilishini, ichki harakatini va bugungi o'quvchi bilan aloqasini ochib beradi. An'anaviy sharhsiz zamonaviy tahlil yuzaki bo'lib qoladi; zamonaviy tahlilsiz an'anaviy sharh esa bugungi kitobxonga yetib bormaydi.

Umuman olganda, Navoiy g'azallarini o'rganishda an'anaviy sharh va zamonaviy tahlil bir-biriga qarshi qo'yilmasligi kerak. Ular bitta yo'lning ikki qadami: birinchisi matnga kirish eshigini ochadi, ikkinchisi esa uning ichida erkin yurish imkonini beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1987–2003.
2. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. G'aroyib us-sig'ar // Mukammal asarlar to'plami. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1987.
3. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn // Mukammal asarlar to'plami. 16-jild. – Toshkent: Fan, 2000.

4. Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon // Mukammal asarlar to'plami. 16-jild. – Toshkent: Fan, 2000.
5. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois // Mukammal asarlar to'plami. 13-jild. – Toshkent: Fan, 1997.
6. Atoulloh Husayniy. Badoye' us-sanoye' / Forsiydan A. Rustamov tarjimasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1981.
7. Ahmad ibn Xudoydod Toroziy. Funun ul-balog'a / Nashrga tayyorlovchi A. Hayitmetov. – Toshkent, 1996.
8. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
9. Бертельс Е. Э. Навои и Джами. – Москва: Наука, 1965.
10. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. – Toshkent: Fan, 1961.
11. Is'hoqov Y. Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983.
12. Is'hoqov Y. So'z san'ati so'zligi. – Toshkent: Zarqalam, 2006.
13. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr, 2009.
14. Komilov N. Xizr chashmasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
15. Haqqul I. Navoiyga qaytish. – Toshkent: Fan, 2007.
16. Haqqul I. Zanjirband sher qoshida. – Toshkent: Yulduzcha, 1989.
17. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018.
18. Sulton I. Navoiyning qalb daftari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1969.
19. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1976.
20. Боровков А. К. Бад'и' ал-лугат. Словарь Тали' Имани Гератского к сочинениям Алишера Навои. – Москва: Издательство восточной литературы, 1961.
21. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1979.
22. Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
23. Jauss H. R. Toward an Aesthetic of Reception. – Minneapolis: University of Minnesota Press, 1982.
24. Kristeva J. Desire in Language: A Semiotic Approach to Literature and Art. – New York: Columbia University Press, 1980.
25. Genette G. Paratexts: Thresholds of Interpretation. – Cambridge: Cambridge University Press, 1997.